



## MAHALLALARDA XAVFSIZ MUHITNI ISHONCHLI TA'MINLASH BO'YICHA MANZILLI PROFILAKTIK CHORA- TADBIRLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Kushbakov Dilshod Musurmankulovich,**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası  
dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454274>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma'qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEYWORDS

*mahalla, xavfsiz muhit, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy profilaktika, mahalla yettiligi, profilaktika inspektori, kriminal o'choq, "Mening inspektorim", "E-ijtimoiy profilaktika", ilmiy xulosa, elektron nazorat, manzilli chora-tadbir.*

### ABSTRACT

*Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlashga qaratilgan manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy, kriminologik va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda ijtimoiy profilaktika, mahalla yettiligi, profilaktika inspektori, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ta'lim-ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni natijaga yo'naltirilgan yagona sikl sifatida qurish zarurligi asoslangan. Maqolada Toshkent shahar Chilonzor tumani "Botirma" MFYda IIV Akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlarga oid amaliy materiallar normativ-huquqiy tahlil bilan uyg'unlashtirildi. Muallif mahalladagi xavfsizlik profilini shakllantirish, kriminal o'choqlarni pasportlashtirish, "E-ijtimoiy profilaktika", "E-nizoli oila", xizmat planshetlari hamda "Mening inspektorim" mobil ilovasi orqali elektron nazorat va aholining qayta aloqasini kuchaytirish, ijtimoiy moslashtirish dasturlarini individual key-menejment shaklida yuritish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ilgari suradi. Xulosa sifatida manzilli profilaktika faqat tadbirlar majmui emas, balki xavfni erta aniqlash, resursni aniq yo'naltirish, ijrochini nommanom belgilash, natijani o'lchash va aholining ishonchini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv modeli ekanligi isbotlanadi.*

Mahalla O'zbekiston jamiyatida nafaqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti, balki huquqiy tartibot, ijtimoiy birdamlik, oilaviy muhit, bandlik, yoshlar tarbiyasi va aholining kundalik xavfsizlik hissi kesishadigan eng yaqin ijtimoiy makondir. Shu bois zamonaviy profilaktika siyosatida "xavfsiz mahalla" tushunchasi oddiy patrul yoki huquqbuzarlik sodir

etilgandan keyingi javob choralari bilan cheklanmaydi; u aholi muammolarini erta ko'rish, xavf omillarini joyida aniqlash, fuqaroni davlat organlari bilan muloqotga jalb etish va har bir hudud bo'yicha o'lchanadigan natija yaratishni nazarda tutadi. Prezidentning 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori mazkur yondashuvni yangi bosqichga olib chiqib, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish, mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash, oilaviy-maishiy munosabatlar, ayollar va yoshlar jinoyatchiligi omillarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda noqonuniy holatlarga tezkor munosabat bildirishni asosiy maqsad sifatida belgiladi [1].

Mazkur qarorning konseptual ahamiyati shundaki, unda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish davlat idoralari zimmasidagi alohida vazifa sifatida emas, balki mahalla - tuman - viloyat darajasida o'zaro bog'langan, nomma-nom javobgarlik va elektron nazoratga asoslangan yaxlit ish tizimi sifatida talqin qilinadi. Qaror matnida 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaror ijrosi natijasida mahallalarda jinoyatchilikni qariyb 1,5 baravarga kamaytirishga erishilgani qayd etilgan bo'lib, bu keyingi bosqichda profilaktika tadbirlarini yanada differensial, hududiy va ilmiy asosda tashkil etish zaruratini kuchaytiradi [1; 2]. Demak, bugungi dolzarb masala - profilaktika tadbirlarining sonini ko'paytirish emas, balki ularni aniq muammo, aniq joy, aniq shaxslar guruhi va aniq natija bilan bog'laydigan boshqaruv modelini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikning umumiy mantiqi ham aynan shuni talab qiladi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi bazaviy hujjat sifatida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi orqali sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish g'oyasini mustahkamlaydi [3]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrda 754-son qarori esa "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori, shuningdek, ko'maklashuvchi tashkilotlar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini belgilaydi [4]. Ushbu normativ zamin mahalla xavfsizligini faqat ichki ishlar organlari faoliyatining tor predmeti sifatida emas, balki ijtimoiy xizmat, huquqiy maslahat, bandlik, tibbiy-psixologik yordam va mahalliy boshqaruv integratsiyasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Mavzuning ilmiy dolzarbligi profilaktika amaliyotida uchraydigan bir nechta muammo bilan izohlanadi. Birinchidan, ayrim hududlarda tadbirbozlik ko'rsatkichi real xavf kamayishi bilan yetarli darajada bog'lanmaydi. Ikkinchidan, mahalla kesimidagi ma'lumotlar jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, "1102" xabarlari, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar, nizoli oilalar, ishsizlik, yashirin migratsiya va kiberxavfsizlik kabi turli manbalardan kelib tushadi, biroq ular yagona xavf profiliga har doim ham birlashtirilmaydi. Uchinchidan, aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchi, murojaat qilish faolligi va mahalla yettiligi bilan kommunikatsiyasi xavfsizlikning o'ziga xos "yumshoq indikatori" bo'lib, uni e'tiborsiz qoldirish profilaktik ishlarining ta'sirchanligini pasaytiradi. To'rtinchidan, raqamli vositalardan foydalanish kengayayotgan bir paytda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmik baholashning shaffofligi va natijani adolatli o'lchash masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Milliy ilmiy maktabda huquqbuzarliklar profilaktikasi, avvalo, huquqiy, tashkiliy va tarbiyaviy choralar uyg'unligi sifatida talqin qilinadi. I. Ismoilov O'zbekistonda profilaktika tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilgan holda, huquqbuzarliklarning

sabab va shart-sharoitlarini erta aniqlash, subyektlar hamkorligini kuchaytirish va faoliyatni aniq huquqiy asosga qo'yish g'oyasini ilgari surgan [7]. I. Ismoilov va M.Z. Ziyodullayevning ichki ishlar organlari tayanch punktlarida faoliyat hamda hamkorlikni tashkil etishga bag'ishlangan o'quv-amaliy qo'llanmasi mahalla hududidagi profilaktik ishlarining institutsional markazi sifatida tayanch punktlarining muhim rolini ko'rsatadi [8]. Bu qarashlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qaroridagi mahalla huquq-tartibot maskanlari, tezkor harakatlanish tizimi va javobgar rahbarlarni nomma-nom biriktirish talablari bilan mantiqan hamohangdir.

B.A. Matlyubov va hammualliflar ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini boshqarish masalalarini o'rganib, rejalashtirish, nazorat, ijro intizomi va natijadorlikni baholashni boshqaruvning ajralmas unsurlari sifatida ko'rsatadilar [9]. A.Sh. Murodovning oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasiga bag'ishlangan monografiyasi esa mahalla xavfsizligi oilaviy-maishiy nizolar, jabrlanish xavfi, psixologik zo'riqish va ijtimoiy moslashtirish bilan bevosita bog'liqligini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi [10]. Bu ilmiy xulosalar ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorida "E-nizoli oila" modulini joriy etish, oilaviy-maishiy munosabatlar doirasidagi jinoyatlarni ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish vazifalari belgilanganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Xorijiy kriminologiya va politsiya fanida mazkur mavzuga yaqin bir necha konseptual yo'nalish mavjud. Herman Goldstein tomonidan asoslangan problem-oriented policing yondashuvi politsiya faoliyatini ichki tashkiliy jarayonlardan ko'ra jamoatchilik kutayotgan muammolarning mohiyati, sabablari va natijaviy yechimlariga qaratishni talab qiladi [11]. Lawrence Sherman ilgari surgan evidence-based policing konsepsiyasi esa politsiya qarorlari eng yaxshi mavjud ilmiy dalillar, ichki tahlillar va baholash natijalariga tayanishi lozimligini asoslaydi [12]. PQ-1 qaroridagi "ilmiy xulosa - tavsiya - natija" tamoyili aynan shu dalilga asoslangan profilaktika g'oyasini milliy amaliyotga mos shaklda ifodalaydi [1].

Cohen va Felsonning routine activity approach nazariyasi jinoyat sodir bo'lishi uchun ehtimoliy huquqbuzar, mos nishon va yetarli nazoratning yo'qligi makon hamda vaqt kesimida tutashishi zarurligini tushuntiradi [13]. Felson va Clarke esa imkoniyatni jinoyatning muhim sabablaridan biri sifatida baholab, jinoyat imkoniyatlari vaqt va joy bo'yicha to'planishi, ularni kamaytirish esa oldini olishning amaliy usuli ekanini ta'kidlaydi [14]. Ushbu yondashuv "Botirma" MFY materiallarida aniqlangan hostellar, 24/7 rejimidagi ko'cha qismi, yoritish, tashvish tugmalari va patrul yo'nalishlari misolida aniq ko'rinadi [6].

Robert Sampson, Stephen Raudenbush va Felton Earls tomonidan ishlab chiqilgan collective efficacy g'oyasi mahalla aholisi o'rtasidagi ishonch, ijtimoiy jipslik va umumiy manfaat yo'lida aralashishga tayyorlik zo'ravonlik darajasi bilan salbiy bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [15]. Bu nazariya O'zbekiston mahalla tizimi uchun alohida qimmatga ega, chunki fuqarolar yig'ini, qo'shnichilik, mahalla faollari va jamoatchilik nazorati xavfsizlikka faqat formal tartibot emas, balki ijtimoiy kapital orqali ham ta'sir qiladi. Braga va hammualliflar tomonidan umumlashtirilgan hot spots policing tadqiqotlari esa jinoyat eng ko'p to'planadigan kichik makonlarga resursni jamlash jinoyat va tartibsizlikni kamaytirishga yordam berishini ko'rsatadi [16].

Shu bilan birga, ilmiy bahs profilaktik yondashuvlarning chegaralarini ham ko'rsatadi. Wilson va Kellingning "broken windows" nazariyasi mayda tartibsizliklar e'tiborsiz qolsa,

jiddiyroq huquqbuzarliklar uchun signal paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [17]. Biroq Harcourt va Ludwig tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oddiy "tartibsizlik - jinoyat" bog'lanishini mutlaq qonuniyat sifatida qabul qilish ehtiyotkorlikni talab etishini ko'rsatadi [18]. Muallif pozitsiyasiga ko'ra, O'zbekiston mahallalarida ushbu bahsdan olinadigan asosiy xulosa shuki, jamoat joyidagi tartibni saqlash zarur, biroq u qattiqqo'l va umumiy repressiv modelga aylanmasligi kerak; eng maqbul yo'l - tartibot choralari, ijtimoiy yordam, obodonlashtirish, raqamli murojaat kanali, fuqarolar ishtiroki va qonuniylik kafolatlarini birlashtirgan manzilli profilaktikadir.

2026-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha besh yo'nalishli normativ arxitekturani belgilaydi: maqsad va ustuvor vazifalar, tashkiliy-profilaktik tadbirlar, tashkiliy-nazorat choralari, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda ijroni tashkil etish va nazorat. Qarorning muhim jihati shundaki, u profilaktikani mahalladagi ijtimoiy-maishiy muammolarni hal etish bilan bevosita bog'laydi, har bir mahalla kesimida kriminal vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi omillar bo'yicha har choraklik manzilli choralarni belgilashni, ularni mahalla - tuman - viloyat darajasida mas'ullarga biriktirishni talab qiladi [1]. Bu normalar profilaktika boshqaruvini umumiy "ko'rsatma bajarish"dan huquqiy javobgarligi aniq, hududiy va o'lchanadigan tizimga aylantiradi.

Qarorda oilaviy-maishiy munosabatlar doirasida, ayollar va yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni "ilmiy xulosa - tavsiya - natija" tamoyili asosida joylarga chiqqan holda maqsadli ilmiy-amaliy o'rganish orqali samarali tashkiliy-huquqiy choralarni belgilash alohida ko'rsatilgan [1]. Bu talab ichki ishlar organlari ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, kriminologlar, psixologlar, sotsiologlar va ijtimoiy ish mutaxassislarini mahalla profilaktikasiga jalb etishni obyektiv ehtiyojga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, magistratura tinglovchilari va kursantlarining mahallalarga biriktirilishi oddiy amaliy yordam emas, balki ilmiy xulosa berish, metodika ishlab chiqish va natijani monitoring qilishga qaratilgan amaliy-laboratoriya formatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini jamoat joylarida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga, ijtimoiy profilaktikaga mas'ul idoralar tomonidan ko'rilayotgan choralarning samaradorligi ustidan elektron nazoratga keng joriy etish belgilangan [1]. Shu bilan birga, Ichki ishlar vazirligiga 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarning huquqbuzarliklar to'g'risidagi og'zaki murojaatlarini soha va hududidan qat'i nazar, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat planshetlari orqali real vaqt rejimida yagona tartibda qabul qilish va tezkor munosabat bildirish amaliyotini yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilgan. 2026-yil 1-noyabrga qadar fuqarolarga mahalla profilaktika inspektori bilan onlayn muloqot qilish, foto, audio, video va tashvish xabarlarini yuborish hamda uning faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi "Mening inspektorim" mobil ilovasini ishlab chiqish va ommalashtirish ko'zda tutilgan [1].

Mazkur raqamli vazifalar ijtimoiy profilaktika tizimiga oid hukumat qarorlari bilan uyg'unlashadi. 754-son qarorga ilova qilingan Nizomga ko'ra, "E-ijtimoiy profilaktika" axborot tizimi ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasida axborot almashish imkonini beruvchi elektron tizimdir; ijtimoiy profilaktika tadbirlari esa huquqbuzarlik sodir etish yoki jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko'rsatishga qaratilgan majmua sifatida

tushuntiriladi [4]. Nizomda profilaktika inspektori axborot tizimi orqali yuborgan ijtimoiy profilaktika obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar subyektlar tomonidan uch ish kuni ichida o'rganilishi, ijtimoiy moslashtirish dasturi esa axborot tizimi orqali ishlab chiqilishi belgilangan [4]. Bu tizim profilaktikaning hujjat aylanishini raqamlashtirish bilan birga, har bir keysning vaqt, ijrochi va natija parametrlarini ko'rish imkonini beradi.

Qarorda qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan talablar ham muhim. Jinoyatlarni hisobdan yashirish, kundalik hisobotlarga soxta ma'lumot kiritish, jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz rad etish, jinoyatlarni qasddan noto'g'ri malakalash kabi holatlarning oldini olish bo'yicha qat'iy nazorat vazifalari belgilangan [1]. Bu normalar profilaktika tizimida "statistik natija" uchun real holatni yashirishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Muallif fikricha, mahallada xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash deganda fuqaroda "jinoyat kamaydi" degan raqamdan oldin "murojaatim qabul qilinadi, ko'rib chiqiladi, huquqim himoya qilinadi" degan ishonch shakllanishi tushunilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tomonidan Chilonzor tumani "Botirma" MFYda amalga oshirilgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorining mahalla darajasidagi amaliy ifodasini ko'rsatadi.

Tahliliy bosqichda 2023-yildan 2026-yilning uch oyligigacha bo'lgan davr bo'yicha oldi olinishi mumkin bo'lgan 44 ta jinoyat, 2026-yilga oid 179 ta ma'muriy huquqbuzarlik hamda 329 ta "102" xabari o'rganilgan [6]. Bu raqamlar profilaktika rejasini taxmin yoki umumiy taassurotga emas, balki real voqea, murojaat va huquqbuzarliklar dinamikasiga tayanib tuzish zarurligini tasdiqlaydi. Jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik va "102" murojaatlari kesimida "Sofa", "Yagona", "Dubai", "Pochcha" hostellari hamda 24/7 faoliyat muhiti mavjud bo'lgan Al-Xorazmiy ko'chasining 600 metrlik qismi kriminal o'choqlar sifatida aniqlangani joyga asoslangan profilaktikaning ahamiyatini ko'rsatadi [6].

Mazkur keys imkoniyat nazariyasi va hot spots policing yondashuvi bilan ilmiy jihatdan izohlanadi. Agar jinoyat imkoniyatlari muayyan joyda, muayyan vaqtda va muayyan ijtimoiy muhitda to'plansa, profilaktik resurslarni teng taqsimlash samara bermaydi; aksincha, yoritish, patrul, tashvish signalizatsiyasi, ro'yxatdan o'tkazish, xostel nazorati, kiberxavfsizlik bo'yicha tushuntirish, ma'muriy choralar va ijtimoiy yordam aynan xavf to'planadigan nuqtaga qaratilishi kerak. "Botirma" MFYda 6 ta ko'cha yoritgichi, 5 ta tashvish tugmasi o'rnatilgani, 3800 kv.m hudud obodonlashtirilgani, 62 ta qo'riqlash pulti hamda 34 ta ko'p qavatli uyning barcha kirish yo'laklariga tashvish tugmalari o'rnatilgani profilaktika faqat insonlar bilan suhbat emas, balki makon xavfsizligini qayta loyihalash ham ekanini ko'rsatadi [6].

Ijtimoiy va axborot profilaktikasi yo'nalishidagi ishlar ham e'tiborga loyiq. Materiallarda 559 ta targ'ibot tadbiri o'tkazilgani, 813 nafar shaxs qamrab olingani, 5000 dan ortiq flayer tarqatilgani, 340 nafar shaxsning Telegram ilovasiga ikki bosqichli himoya o'rnatilgani, 450 nafar shaxs "Cyber\_102" tizimiga ulanganligi va 2311 nafardan ortiq fuqaroga kiberjinoyatlar bo'yicha tushuntirish berilgani qayd etilgan [6]. Ushbu holat mahalla xavfsizligi endilikda jismoniy hudud bilan cheklanmasligini, raqamli firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va onlayn kommunikatsiya madaniyati ham profilaktika predmetiga aylanganini tasdiqlaydi.

Kursantlar ishtirokidagi maxsus profilaktik chora-tadbirlar doirasida Al-Xorazmiy ko'chasida 1 ta patrul yo'nalishi tashkil etilgan, 1871 ta xonadon va 4479 nafar shaxs o'rganilgan, 378 ta murojaat ko'rib chiqilgan, 310 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan, 816 ta profilaktik suhbat o'tkazilgan, 1488 nafardan ortiq fuqaro "Mening inspektorim" mobil

ilovasiga ulangan va 811 nafardan ortiq fuqaro vaqtinchalik ro'yxatga qo'yilgan [6]. Bu ma'lumotlar xizmat planshetlari, mobil ilovalar va fuqarolarning ro'yxatdan o'tish tartiblarini profilaktika sikliga integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Ayni paytda, bunday ko'rsatkichlarni baholashda faqat ijro soni emas, balki keyingi davrda murojaatlar kamayishi, takroriy huquqbuzarliklar qisqarishi, aholi ishonchi ortishi va muammoli shaxslar ijtimoiy moslashuvi kabi natija indikatorlari ham e'tiborga olinishi lozim.

Ijtimoiy profilaktika yo'nalishida 33 nafar fuqaro ishga joylashtirilgani, 6 ta jinoyat muhokamasi tashkil etilgani, 5 nafar shaxsning muammolari o'rganilib mahalla yettiligi tizimiga yo'naltirilgani, 2311 ta xonadon o'rganilishi natijasida ijtimoiy profilaktika tadbirlari o'tkazilishi lozim bo'lgan qo'shimcha 5 nafar shaxs aniqlanib mahalla yettiligi vakillariga nomma-nom birlashtirilgani va 6 ta taqdimnoma kiritish masalasi mas'ullarga yo'naltirilgani qayd etilgan [6]. Ushbu amaliyot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qaroridagi ijtimoiy-maishiy muammolarni hal qilish orqali oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar uchun mahalliy hokimliklar va profilaktika subyektlarining mas'uliyatini oshirish talabiga to'liq mos keladi [1].

Anonim so'rovnoma natijalari alohida ilmiy ahamiyatga ega. 2546 ta xonadon o'rganilib, ular "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratilgan; 4 ta uy va 288 ta xonadon "qizil", 15 ta uy va 1246 ta xonadon "sariq", 15 ta uy va 1012 ta xonadon "yashil" toifaga kiritilgan, 57 ta ijtimoiy profilaktika obyekti aniqlangan [6]. 5120 nafar fuqaro o'rtasida mahalla yettiligi faoliyati bo'yicha anonim so'rov olingan bo'lib, 87,8 foiz respondent mahalladagi xavfsizlik holatini yaxshi deb baholagan, 84,4 foiz aholi mahalla yettiligi faoliyatidan qoniqish bildirgan, biroq 70 foiz aholi mahalla yettiligiga murojaat qilmagan [6]. Muallif fikricha, aynan shu nomutanosiblik - ijobiy baho mavjud bo'lsa-da, murojaat faolligi pastligi - profilaktika tizimida kommunikatsiya, ishonchli kanal va proaktiv ishlashni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori mazmunidan kelib chiqib mahallalarda manzilli profilaktika tizimi "xavf diagnostikasi - ilmiy xulosa - mahalla yo'l xaritasi - individual va hududiy choralar - elektron ijro - fuqarolar bahosi - natijani qayta tahlil qilish" zanjiri asosida qurilishi lozim. Bunda profilaktika inspektori yakka ijrochi emas, balki xavf signalini ko'ruvchi, ma'lumotni tizimga kirituvchi, mahalla yettiligi va boshqa subyektlarni harakatga keltiruvchi, fuqarolarning murojaatini real vaqt rejimida qabul qiluvchi hamda natijani huquqiy jihatdan nazorat qiluvchi markaziy bog'in sifatida namoyon bo'ladi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori esa profilaktika topshirig'ini o'z vakolati doirasida ijtimoiy yechimga aylantirishi kerak.

Birinci ilmiy-amaliy taklif sifatida har bir mahalla bo'yicha "Mahalla xavfsizlik profili"ni har chorakda tuzish va yangilash maqsadga muvofiq. Ushbu profil jinoyatlar, ma'muriy huquqbuzarliklar, "102" xabarlar, xizmat planshetlari orqali qabul qilingan murojaatlar, "Mening inspektorim" ilovasidagi tashvish xabarlar, ijtimoiy profilaktika obyektlari, nizoli oilalar, ishsizlik, vaqtinchalik ro'yxatda turuvchi shaxslar, xostel va ijara uylaridagi harakat, kiberxavfsizlik xavflari, aholi so'rovlari va jamoat joylari holatini yagona tahliliy hujjatga birlashtirishi lozim. Profilning mazmuni faqat statistik ma'lumot emas, balki "qayerda, qachon, kimga nisbatan, qaysi sababdan, qaysi resurs bilan, qaysi muddatda" degan savollarga javob beruvchi boshqaruv xaritasi bo'lishi kerak.

Ikkinchi taklif - kriminal o'choqlarni pasportlashtirishdir. "Botirma" MFY misolida hostellar va Al-Xorazmiy ko'chasining 600 metrlik qismi alohida pasportga ega bo'lishi, unda sodir etilgan yoki oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar turi, ma'muriy huquqbuzarliklar dinamikasi, murojaatlar vaqti, videokuzatuv hamda yoritish holati, patrul yo'nalishi, mas'ul rahbar, xostel ma'muriyati, fuqarolar murojaat kanallari, tashvish tugmalari, evakuatsiya va tezkor yetib borish imkoniyati ko'rsatilishi zarur. Pasportlashtirishdan maqsad obyektni "xavfli joy" deb stigmalash emas, balki xavfni o'lchash, kerakli chora va mas'ulni aniq belgilash, keyingi baholashda oldingi holat bilan solishtirish imkonini yaratishdir.

Uchinchi taklif - ijtimoiy profilaktika obyektlarini individual keys-menejment asosida yuritish. Amaldagi Nizom profilaktika inspektori axborot tizimi orqali ma'lumot yuborishi, subyektlar uch ish kuni ichida o'rganishi va zarur bo'lsa ijtimoiy moslashtirish dasturini ishlab chiqishi lozimligini belgilaydi [4]. Ushbu tartib amaliyotda quyidagicha kuchaytirilishi mumkin: har bir ijtimoiy profilaktika obyekti bo'yicha muammo turi, asosiy xavf, yordam turi, mas'ul shaxs, muddat, oraliq natija va yakuniy baho elektron kartada aks ettiriladi; dastur yakunlangandan keyin kamida bir yil davomida monitoring qilinadi; takroriy xavf qayd etilsa, keys qayta ochiladi. Bu yondashuv odamni "hisobda turuvchi shaxs" sifatida emas, balki huquqiy, ijtimoiy va psixologik yordamga ehtiyojmand fuqaro sifatida ko'rishga xizmat qiladi.

To'rtinchi taklif - "Mening inspektorim" mobil ilovasi va xizmat planshetlarini profilaktika baholash tizimiga ulash. Mobil ilova fuqaroga murojaat yuborish imkonini berish bilan cheklanmasligi, balki murojaat qabul qilingan vaqt, ko'rib chiqilgan muddat, ko'rilgan chora, fuqaro bahosi va takroriy murojaat mavjudligini ko'rsatadigan boshqaruv paneli bilan bog'lanishi kerak. Agar fuqaro profilaktika inspektori faoliyatiga baho bersa, ushbu baho rag'batlantirish yoki intizomiy chora mexanizmining yagona asosi bo'lmasligi lozim, biroq u aholi ishonchi, muloqot sifati va xizmatga ochiqlik ko'rsatkichi sifatida albatta hisobga olinishi zarur. Bu taklif PQ-1 qarorida belgilangan tezkor munosabat va aholining roziligiga erishish maqsadiga mos keladi [1].

Beshinchi taklif - "Ijtimoiy profilaktika haftaligi"ni kampaniya shaklida emas, balki maqsadli diagnostika va yechim haftaligi sifatida o'tkazish. Qarorga ilova qilingan Nizomga ko'ra, ushbu haftalikning maqsadi mahallalarda ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika obyektlari muammolarini o'rganish, aholi huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarni jipslashtirish va mahallaga daxldorlik hissini kuchaytirishdir [1]. Shu sabab haftalik davomida faqat targ'ibot bilan cheklanmasdan, har bir aniqlangan muammo bo'yicha mas'ul subyekt, muddat va elektron kuzatuv belgilanadigan "yechim varaqasi" rasmiylashtirilishi lozim.

Oltinchi taklif - huquq-tartibot ta'lim va ilmiy tashkilotlarini "qizil" toifadagi mahallalar uchun doimiy ilmiy-amaliy ko'mak markazi sifatida biriktirish. PQ-1 qarorida uch yildan buyon "qizil" toifada qolayotgan mahallalar huquq-tartibot idoralarning ta'lim va ilmiy tashkilotlariga biriktirilishi nazarda tutilgan [1]. Bu vazifa ilmiy xodimlar tomonidan mahallaga bir marotabalik tashrif emas, balki davriy kriminologik monitoring, anonim so'rov, sabablilik tahlili, profilaktika metodikasi, o'quv mashg'ulotlari va natija auditi bilan davom etishi kerak. "Botirma" MFY tajribasida professor-o'qituvchi, magistratura tinglovchisi va kursantlarning biriktirilishi bunday modelning amaliy boshlang'ich shakli sifatida baholanishi mumkin [6].

Yettinchi taklif - natijadorlik indikatorlarini qayta ko'rib chiqish. Amaliyotda ma'muriy bayonnomalar, profilaktik suhbatlar, targ'ibot tadbirlari, flayerlar va o'rganilgan xonadonlar

soni muhim, biroq ular yakuniy natijani to'liq ifodalamaydi. Muallif fikricha, asosiy indikatorlar qatoriga kriminal o'choqdagi takroriy xabarlar kamayishi, oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar bo'yicha xavf omillari bartaraf etilishi, ijtimoiy moslashtirish dasturi yakunlangan shaxslarda takroriy huquqbuzarlik qayd etilmasligi, nizoli oilalar bo'yicha qayta murojaatlar kamayishi, aholi murojaatining ko'rib chiqilish muddati, fuqarolar bahosi va mahalla yettiligiga murojaat qilish faolligi ham kiritilishi lozim. Aks holda, tizim "faoliyat ko'rsatkichi"ni ko'paytirib, "xavfsizlik natijasi"ni yetarli baholamay qolishi mumkin.

### **Amaliyotga qo'llash mexanizmi**

Taklif etilayotgan modelni amaliyotga joriy etish uchun birinchi bosqichda tuman hokimligi, prokuratura, ichki ishlar organlari, mahalla yettiligi va birlashtirilgan ta'lim-ilmiy muassasa ishtirokida mahalla xavfsizlik profilini tuzish bo'yicha ishchi tartib tasdiqlanishi lozim. Ushbu tartibda ma'lumot manbalari, axborotni kiritish muddatlari, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablari, mas'ul ijrochilar, koordinatsiya yig'ilishlari davriyligi va aholi bilan muloqot shakllari ko'rsatiladi. Huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori, 754-son qaror bilan tasdiqlangan Nizom, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oid qonunchilik normalari xizmat qiladi [1; 3; 4; 5].

Ikkinchi bosqichda ma'lumotlar integratsiyasi amalga oshiriladi. Bu bosqichda jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar, "102" xabarlar, xizmat planshetlari orqali qabul qilingan murojaatlar, "Mening inspektorim" ilovasi, "E-ijtimoiy profilaktika", "E-nizoli oila", vaqtinchalik ro'yxat, xostel va ijaradagi shaxslar harakati, ijtimoiy yordamga ehtiyojmand fuqarolar hamda anonim so'rov natijalari yagona tahliliy faylga jamlanadi. Bunda texnik integratsiya darhol mukammal bo'lmasa ham, kamida tuman miqyosida mas'ul xodimlar tomonidan haftalik va oylik tahlil jurnali yuritilishi mumkin. Muhimi, har bir raqamning ortida real joy, real muammo va real mas'ul ko'rinishi kerak.

Uchinchi bosqichda har choraklik manzilli chora-tadbirlar rejalashtiriladi. Reja umumiy targ'ibot va navbatchilikdan iborat bo'lmasdan, mahallaning qizil, sariq va yashil segmentlari bo'yicha farqlangan bo'lishi zarur. "Qizil" segmentda kriminal o'choq, nizoli oila, ishsizlik, nazoratsiz yoshlar, kiberfiribgarlik qurboni bo'lish ehtimoli yoki boshqa xavf omillariga nisbatan intensiv chora belgilanadi; "sariq" segmentda ogohlantirish, maslahat, monitoring va ijtimoiy yordam uyg'unlashtiriladi; "yashil" segmentda jamoatchilik nazorati, sog'lom turmush tarzi, huquqiy madaniyat va fuqarolar daxldorligini mustahkamlash ustuvor bo'ladi. Bunday differensial rejalashtirish resursni adolatli va samarali taqsimlaydi.

To'rtinchi bosqichda ijro real vaqtga yaqin elektron monitoring qilinadi. Profilaktika inspektori va boshqa mas'ullar har bir chora bo'yicha bajarilgan ishni axborot tizimiga kiritadi, dalillovchi materialni joylaydi, kechikish sababini ko'rsatadi va muammoning hal etilish holatini belgilaydi. Tuman darajasidagi muvofiqlashtiruvchi shtab haftalik ravishda kechikkan, samarasiz yoki takroriy xavf yuzaga kelgan keyslarni muhokama qiladi. Bu yerda muhim qoidani unutmaslik kerak: elektron nazorat inson omilini almashtirmaydi, balki javobgarlikni ko'rinadigan, tekshiriladigan va baholanadigan qiladi.

Beshinchi bosqichda aholi qayta aloqasi va jamoatchilik ishtiroki mustahkamlanadi. "Botirma" MFY so'rovlarida 70 foiz aholining mahalla yettiligiga murojaat qilmaganligi profilaktika tizimi fuqaroni kutib o'tirmasdan, uning oldiga borishi kerakligini ko'rsatadi [6]. Shu sabab har bir mahallada qisqa anonim so'rovlar, mobil ilova baholari, fuqarolar yig'inlarida

ochiq muhokamalar, jinoyat o'choqlari bo'yicha maqsadli uchrashuvlar va aholining takliflarini qayd etish tizimi joriy etilishi zarur. Murojaat qilmagan fuqaro befarq deb baholanmasligi kerak; u murojaat kanali haqida bilmasligi, ishonmasligi yoki muammoni o'zi hal qilishga urinayotgan bo'lishi mumkin. Profilaktikaning vazifasi ushbu "jim xavf"ni ham ko'rishdir.

Oltinchi bosqichda natija auditi o'tkaziladi. Har chorak yakunida mahalla xavfsizlik profilining avvalgi holati bilan keyingi holati solishtiriladi: kriminal o'choqlardagi xabarlar, ma'muriy huquqbuzarliklar, nizoli oilalar bo'yicha murojaatlar, ijtimoiy moslashtirish dasturini yakunlagan shaxslar holati, fuqarolar bahosi va jamoat joylaridagi tartib ko'rsatkichlari qayta o'lchanadi. Agar ko'rilgan chora natija bermagan bo'lsa, rejani takrorlash emas, sababni yangidan tahlil qilish talab etiladi. Aynan shu nuqtada "ilmiy xulosa - tavsiya - natija" tamoyili amaliy boshqaruv algoritmiga aylanadi.

Yettinchi bosqichda muvaffaqiyatli tajribalar boshqa hududlarga moslashtirib joriy etiladi. "Botirma" MFYda qo'llangan yondashuvni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki uning metodik yadrosini - tahlil, reja, mas'ul, ijtimoiy chora, texnik xavfsizlik, raqamli kanal, so'rov va auditni - har bir mahalla xususiyatiga moslashtirish zarur. Masalan, xostellar ko'p hududda ro'yxatdan o'tish va vaqtinchalik yashovchilar monitoringi ustuvor bo'lsa, chekka mahallalarda bandlik, yo'l infratuzilmasi yoki voyaga yetmaganlar nazorati dolzarb bo'lishi mumkin. Shu bois manzilli profilaktika uchun yagona shablon emas, yagona metodologiya zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish siyosatini yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Qaror profilaktikani ijtimoiy muammolarni hal etish, ilmiy tahlil, raqamli texnologiyalar, elektron nazorat, nomma-nom javobgarlik va aholining tezkor murojaatiga javob berish bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv mahallani jinoyat qayd etiladigan statistik hudud emas, balki xavf omillari erta ko'riladigan, fuqarolar ehtiyoji aniqlanadigan va ijtimoiy yordam orqali huquqbuzarlikning oldi olinadigan tirik boshqaruv makoni sifatida talqin etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimi samarali bo'lishi uchun kamida oltita shart bajarilishi kerak: birinchidan, mahalla xavfsizlik profili muntazam yangilanishi; ikkinchidan, kriminal o'choqlar pasportlashtirilishi; uchinchidan, ijtimoiy profilaktika obyektlari individual keys sifatida yuritilishi; to'rtinchidan, "E-ijtimoiy profilaktika", "E-nizoli oila", xizmat planshetlari va "Mening inspektorim" ilovasi yagona natijadorlik nazorati bilan bog'lanishi; beshinchidan, fuqarolar bahosi va anonim so'rovlar boshqaruv qarorlariga kiritilishi; oltinchidan, tadbirlar soni emas, xavf kamayishi va ishonch ortishi asosiy mezon sifatida olinishi lozim.

"Botirma" MFY tajribasi profilaktika amaliyoti uchun muhim ilmiy-amaliy saboq beradi. Unda jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar tahlili, "102" xabarlari, kriminal o'choqlarni aniqlash, texnik xavfsizlik choralari, kiberprofilaktika, xonadonma-xonadon o'rganish, ijtimoiy yordam va anonim so'rovlar birlashtirilgan. Bu kompleks yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qaroridagi "yaxlit manzilli ishlash tizimi" g'oyasining mahalla darajasidagi amaliy ko'rinishidir. Shu bilan birga, mazkur tajriba kelgusida yanada mukammal bo'lishi uchun natija indikatorlari, fuqarolar qayta aloqasi, takroriy xavf monitoringi va ilmiy audit mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Xavfsiz mahalla - bu faqat jinoyat kam qayd etilgan hudud emas; u fuqaro o'z muammosini ayta oladigan, murojaati tezkor qabul qilinadigan, ijtimoiy yordam manzilli yetkaziladigan, jamoat joylari xavfsiz loyihalangan, mahalla yettiligi va profilaktika inspektori faoliyati ochiq

baholanadigan hududdir. Manzilli profilaktika tizimi aynan shu natijaga erishish uchun huquqiy, ilmiy, ijtimoiy va texnologik vositalarni birlashtirishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorining mazmuni ham, "Botirma" MFY amaliyoti ham shuni ko'rsatadiki, eng samarali profilaktika - bu jazodan oldingi ogohlantirish, hisobotdan oldingi real yordam, umumiy tadbirdan oldingi aniq muammo va davlat nazoratidan oldingi fuqarolar ishonchidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/7973611>.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/7330260>.
- [3] O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-2387357>.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrda 754-son "Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/7872510>.
- [5] O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda O'RQ-350-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-2156899>.
- [6] Chilonzor tumani IIOFMB statistik malumotlari 2026-yil 27-aprel holatiga ko'ra.
- [7] Ismoilov I. O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari: respublika amaliy-ilmiy konferensiyasi materiallari. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. - B. 14-20.
- [8] Ismoilov I., Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlari tayanch punktlarida faoliyat va hamkorlikni tashkil etish: o'quv-amaliy qo'llanma. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. - 254 b.
- [9] Matlyubov B.A., Muhamedov O'X., Tursunov A.S., Amirov Z.A., Alimov B.F. Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini boshqarish: darslik. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. - 295 b.
- [10] Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. I. Ismoilov. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. - 96 b.
- [11] Goldstein H. Improving Policing: A Problem-Oriented Approach // Crime & Delinquency. - 1979. - Vol. 25. - P. 236. DOI: 10.1177/001112877902500207.
- [12] Sherman L.W. Evidence-Based Policing. Ideas in American Policing. - Washington, D.C.: Police Foundation, 1998. NCJ 177319.

- [13] Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review. - 1979. - Vol. 44. - P. 588-608. DOI: 10.2307/2094589.
- [14] Felson M., Clarke R.V. Opportunity Makes the Thief: Practical Theory for Crime Prevention. Police Research Series, Paper 98. - London: Home Office, 1998.
- [15] Sampson R.J., Raudenbush S.W., Earls F. Neighborhoods and Violent Crime: A Multilevel Study of Collective Efficacy // Science. - 1997. - Vol. 277. - P. 918-924. DOI: 10.1126/science.277.5328.918.
- [16] Braga A.A., Turchan B., Papachristos A.V., Hureau D.M. Hot spots policing of small geographic areas effects on crime. Campbell Systematic Reviews. - 2019. DOI: 10.1002/cl2.1046.
- [17] Wilson J.Q., Kelling G.L. Broken Windows: The Police and Neighborhood Safety // The Atlantic Monthly. - 1982. - March.
- [18] Harcourt B.E., Ludwig J. Broken Windows: New Evidence from New York City and a Five-City Social Experiment // University of Chicago Law Review. - 2006. - Vol. 73. - P. 271.

